

## ABDULLA QAHHORNING BADIY USLUBI VA SO'Z TANLASH MAHORATI

Jo‘rayeva Nargiza Farrux qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14539826>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning badiy uslubi va so‘z tanlash mahorati hamda hikoyalariidagi obrazlarning tasviri atroflicha yoritib berilgan. Hikoyalarining o‘ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Qahhor, hikoya, janr, realistik, qahramonlar, o‘tmish, zamonaviy, mahorat, Dahshat, muloqat, munosabat.

### ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ СТИЛЬ АБДУЛЫ КАХХОРА И ВЫБОР СЛОВА

**Аннотация.** В этой статье подробно рассмотрен художественный стиль Абдуллы Каҳхора и умение выбирать слова, а также образы героев его рассказов. Описаны особенности их рассказов.

**Ключевые слова:** Абдулла Каҳхор, рассказ, жанр, реалистический, персонажи, прошлое, современность, мастерство, Ужасы, диалог, мироощущение.

### ABDULLA QAHHOR'S ARTISTIC STYLE AND WORD CHOICE SKILLS

**Abstract.** This article examines in detail the artistic style of Abdullah Kahhor and his ability to choose words, as well as the images of the heroes of his stories. The features of their stories are described.

**Key words:** Abdullah Kahhor, story, genre, realistic, characters, past, modernity, skill, Horror, dialogue, attitude.

*Abdulla Qahhor bosib o‘tgan hayot yo‘li ham, ijod yo‘li ham vijdon yo‘li edi. U so‘nggi nafasigacha millat dardi bilan yashadi...*

*Ibrohim Haqqul*

Mohir hikoyanavis, yozuvchi hamda o‘zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabr Qo‘qon shahrida dunyoga kelgan. A.Qahhorning bolaligi Farg‘ona vodiysining ko‘plab qishloqlarida kechgan. Abduqahhor aka temirchi bo‘lgani bois oilasi bir yerda muqim yashamagan. Bu qishloqdan u qishloqqa tirikchilik uchun yoki boshqa sabablarga ko‘ra ko‘chib yurishga majbur edilar.

Adibning hayot voqealari uning dunyoqarashi bilan o‘sha davr voqeasi rivojini yaqqol tasvirlaydi. Uning aksariyat hikoyalari ijtimoiy tahlili va o‘sha zamon ruhini aks ettirishi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Bundan tashqari insonning ichki dunyosi haqiqiy maqsadlari va o‘zgalarga munosabati, har qanday vaziyatlardan ustaomonlik bilan chiqib keta olishini adib juda ham chiroyli tasvirlangan.

A.Qahhor ko‘pincha o‘zining hikoyalarida ijtimoiy va ma’naviy muammolarni yoritadi.O‘sha davrda yuz berayotgan ijtimoiyadolatsizlik, turli guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlar,inson o‘z o‘zini topishga intilishi ,ayollarni o‘z erkinligi uchun kurashi, to‘yda bo‘layotgan bir kishining baxtsizliklari, vaqt o‘tgani sari turli holatlarni boshdan kechirgan odamlar, san’atning qudrati, san’at va odamlar o‘rtasidagi munosabat, uning samimiy,ruhiy, psixologik holatlariga oid mavzularni ochib beradi.

Hattoki Abdulla Oripov Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotining buyuk ijodkorlaridan biri deb biladi. Uning asarlarida inson ruhiyati,orzulari , kelajakka bo‘lgan umidlarini insonni ichki dunyosini chuqur tahlil qilgan, jamiyatdagi nohaqliklarni mohironalik bilan tasvirlagan yozuvchi sifatida uning asarları nafaqat badiiy balki ma’naviy va ijtimoiy jihatdan ham juda kuchli yaratilgan. A Qahhorning badiiy uslubi, so‘z tanlashdagi mahorati alohida e’tiborga loyiqidir.

Uning “Xotinlar” hikoyasi O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos alohida o‘ringa ega.Bu hikoya asosan ijtimoiy masani o‘rganib ,oiladagi xotin qizlarni o‘rni ,ular duch kelgan muammo va qiyinchiliklar hamda odamlarni o‘zgarib borayotgani yoritiladi. Bu asar g‘oyasida xotinlarning hayoti, ular barcha qiyinchiliklarga qaramay kun kechirayotgani, tirikchilik ilinjida hatto traktorchilik ham qilishgani ham alohida o‘ringa ega. Risolat, Bahri, Qumrinisa,juvonva Asqar ota obrazlari jamiyat hayotini yaqqol ochib beradi. Haqiqatdan ham o‘sha davrda ayollarning jamiyatdagi o‘rni past bo‘lgan bundan tashqari o‘zlarining huquqlari erkinliklari va mustaqilligi uchun kurashlarda bazan o‘z orzularidan ham voz kechishgan .O‘sha davr hayotidagi ayollarning ikkita yo‘li bo‘lgan.Biri hayotida bo‘layotgan yaxshi va yomon o‘zgarishlarni indamay qabul qilishi,ularga bosh egishi ,ikkinchisi esa qiyinchiliklarga qaramay haq va adolat yo‘lida To‘marisdek mardonavor kurashishi.O‘sha davr o‘zbek jamiyatida ayollar uchun ananaviy va stereotipik rol o‘rnatilgan.

Stereotipik — o‘zgarmas,noto‘g‘ri fikrlashga asoslangan tasavvurni anglatadi.Stereotipik ayol deganda noto‘g‘ri tasavvur, ayollarni zaif faqatgina uy ishlarini bajaradigan passiv rol o‘ynovchi fikr ekanligi tushuniladi. Bu tushuncha ijtimoiyadolatsizlikka, kamsitishga sabab bo‘ladi.

Abdulla Qahhor hikoyalarini mazmuni va janr xususiyatlarigako‘ra ikki guruhga ajratib tahlil etish mumkin. Bularning bir guruhini o‘tmish haqidagi hikoyalar tashkil qilsa, ikkinchi guruh hikoyalarning bosh qahramonlari zamondoshlarimizdir.Yaqin o‘tmishdagi o‘zbek voqeligi “Anor”, “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Tomoshabog”, “Millatchilar”kabi hikoyalarda aks etgan. Keyinchalik esa, adib o‘tmish mavzusida yana “Dahshat”hikoyasini yaratdi.

Shuningdek,, “O’tmishdan ertakla”qissa deb atalgan bo‘lsa-da, mohiyati bilan ayrim-ayrim hikoyalardan tashkil topgan. Shuning uchun ularni ham adibning o’tmish haqidagi asarlarini deb bilish mumkin.Abdulla Qahhor qissa va roman janrlarini taraqqiy etishiga ham salmoqli hissa qo’shdi. U “Sarob”, “Oltin yulduz”, “Qo’shechinor chiroqlari”, “Sinchalak”, “O’tmishdan ertaklar”, “Muhabbat” singari ajoyib roman va qissalar yozib, katta janrda ham mohir san’atkor ekanini isbotladi. Yozuvchi ajoyib o’xshatishlar, go’zal sifatlashlar, original mubolag‘alar va metoforalar, hikmatli so‘z va iboralar yaratish orqali o‘z fikrini g‘oyat siqiq va obrazli qilib ifodalaydi.Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining rivojida Abdulla Qahhorning hissasi nihoyatda katta. “Abdulla Qahhor o‘zbek hikoyachiligining zamonaviy jahon hikoyachiligi darajasiga ko‘tardi va o‘zbek realistik hikoyachiligining asoschisi degan nom oldi.

Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon navalistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorga qo‘yish mumkin” deb yozgan edi rus tanqidchisi.Abdulla Qahhorning izchil realistik uslubda yozilgan hikoyalarining ko‘pchiligiurush yillarida va urushdan keyingi davrda yaratilgan. Bular “Ko‘k convert”, ”Qizil convert”, “Kampirlar sim qoqdi”, “Xotinla”, “Asror bobo”, “Beshik”, “Mahalla”, “Nurli cho‘qqilar”kabilardir. Albatta, ularning hammasi ham bir xil darajada badiiy yuksakemas. Ularning ichida mazmunan sayozroqlari ham, uncha pishiq ishlanmaganlari ham bor. Lekin shu bilan birga, hech shubhasiz, adabiyotimizning oltin fondidan o‘rin oladiganlari ham bor. Bu gap, ayniqsa, “Ming bir jon”va “Asror bobo” hikoyalariga taalluqlidir.“Ming bir jon”-insonning hayotga muhabbatini, umuman, hayotning qudratini, inson irodasini ulug‘laydigan hikoya. Bu hikoya noumid odamlarning ko‘nglida umid chirog‘ini yoqadi, ularni yashash uchun kurashga chorlaydi, umr yo‘lidagi har qanday, g‘ovlarni sabot va bardosh bilan yengishga o‘rgatadi. Hikoyani o‘qir ekanmiz, Mastura obrazi misolida chinakam o‘zbek ayolining jasorati, hayotga bo‘lgan shijoati, bir insonning hayotga bo‘lgan muhabbat, so‘nmas irodasi timsoli desak adashmagan bo‘lamiz. Masturaning turmush o‘rtog‘ining o‘z ayoliga bo‘lgan vafodorligini, u bilan besh yil mobaynida bitta shifoxonada kasallar orasida sog‘bo‘lsada, ayoli uchun yashagan bir insonni ko‘rish mumkin. U umrining oxirigacha o‘z ayoliga sadoqat bila sobit turdi va albatta farovonlikka erishishdi. Masturaning ruhiyati har vaqt hayotga bo‘lgan tashnalik, kamtarlik sezilib turadi.

“O‘g‘ri”hikoyasini tekstual tahlil qilish ko‘proq samara beradi. Negaki, hajman mo‘jaz bu hikoyada badiiy maqsadga xizmat qilmaydigan, personajlar tabiatini ochishga qaratilmagan bironta so‘z ham uchramaydi. Binobarin, asarda nomuhim, ikkinchi darajali badiiy unsurining o‘zi yo‘q. Shu bois, xuddi lirik asarlarni tahlil qilgandek, mazkur hikoyani ham tekstual usulda o‘rganish samarali bo‘ladi. “O‘g‘ri” hikoyasi matni ustida ishlashni quyidagicha tashkil qilish mumkin. Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi asosida kitobxonga o‘zgalar baxtsizligi

evaziga kun ko‘rvuchi manfaatparast kimsalarga nafrat, zulmga isyon hissini shakllantirish, asardagi obrazlarni tahlil qilish, yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati va istiqlol mohiyatini anglatishdan iborat. Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasining tahlili. “O‘g‘ri” da ham oddiy xalq hayotidan biri Qobil bobo. U asarda jabrdiydachol bo‘lib tasvirlanadi. “Dahshat” hikoyasidagi dodho bilan bir zamonda yashasada, biroq undan farqi katta. Dodho boy-badavlat, sakkizta xotini bo‘lishi bilanbirga, aql-farosati ham joyida zulmkor shaxs bo‘lib tasvirlanadi. “O‘g‘ri” qahramoni haddan tashqari go‘l, nodon odam, uning faolligi ham aslida nodonlik, go‘llik oqibati; u o‘z raqiblariga qarshi turish, ularni dushman deb bilish o‘rniga, ularga o‘zini yaqin oladi, dushman bilando‘s tutinadi, ulardan yaxshilik kutadi, ularning ketidan tinmay yuguradi. Qobil boboning eng qaltis, ayanchli vaziyatdagি holati ham, najot yo‘lidagi faol xatti-harakatlari ham kitobxonga kulgili bo‘lib tuyulaveradi. Ammo shu o‘rinda bu kulgu fosh etuvchi tahqirlovchi kulgi emas, bu kulgi zamirida oddiy odamga nisbatan zo‘r hurmat, oddiy odamni shu kuylarga solib qo‘ygan muhitga nisbatan kuchli nafrat bor. Qobil bobo kulgili bo‘lib ko‘ringan xatti-harakatlari bilan ham kitobxon simpatiyasini o‘z tomonigatortadi. Kitobxon uning nodonlarcha qilgan xatti-harakatlarini ko‘rib kuladi, ayni vaqtida uning nochor ahvoliga achinadi, qayg‘uradi. Ma‘lumki, asarda Qobil bobodan tashqari yana bir necha salbiy personajlar –ellikboshi, amin, pristav obrazlari bor. Asarda bu obrazlarning yoshi ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, ular ham oddiy xalq hayotidan deb hisoblaymiz. Chunki ellikboshi ham ko‘rdi, amin deganda yoshi ellik besh-oltmish besh yoshlardagi, qorin solgan keksa avlodni tushunamiz.

Hikoya voqeasi davomida Qobil boboular bilan bir necha bor to‘qnashadi. Yozuvchi mahorati shundaki, salbiy personajlar tasvirida ham asarning umumiy ruhiga mos ritmika to‘la saqlanadi, salbiy personajlar bilan bog‘liq hodisalar ham kulgili tarzda davom etaveradi.

Ammo gap salbiy personajlar ustiga ko‘chganda kulgingining xarakteri o‘zgaradi, u qahrli, kinoyali –kesatiq tusini oladi. “Qobil boboning qo‘shnisi –burunsiz ellikboshi kirdi. og‘ilga kirib teshikni, ho‘kiz bog‘langan ustunni qimirlatib ham ko‘rdi, so‘ngra Qobil boboni chaqirdi va pang tovush bilan dedi:-Ho‘kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi! A.Qahhor “O‘g‘ri” hikoyasida takabbur amaldorlar qiyofasini cheksiz istehzo bilan ko‘rsatadi. Hikoyada ho‘kizini o‘g‘ri urganidan nima qilishini bilmay “dag‘-dag‘titrab, tizzalari bukilib-bukilib ketayotgan, ko‘zlarini jovidirab hammaga qarasada hech kimni ko‘rmayotgan Qobil bobo” huzuriga iltijo bilan kelganida amin uni “og‘zini ochmasdan qattiq kekirib, baqbaqasini osiltirgancha kulib” bepisandlik bilan qarshi oladi. Adib uzundan-uzun tafsilotlarsiz bu amaldorning bo‘kkanicha miriqib ovqatlangani, kunlari yeb-ichish, maishat bilan o‘tganidan semirib, boqilgan ho‘kizday baqbaqasi osilib ketganiga e’tibor qaratadi. Qobil bobo iltijo qilib, qo‘l qovushtirib ro‘parasida turgan paytda uyat, andishani, kambag‘al bechoralarni hurmat qilishni unutgan amin “chinchalog‘ini ikkinchi bo‘g‘inigacha burniga tiqib kului” degan.

Kambag‘al-bechora chol bilan takabbrur amaldorning muloqot-munosabati, harakat-holatlari romanlardagidek keng bat afsil tasvirlanmasa-da, “O‘g‘ri”da bechora bir insonning tahqirlanishi manzarasi aniq namoyon qilingan. Ko‘rinib turibdiki, mohiyat e’tibori bilan amin ellikboshining o‘zgini si, u ham kambag‘alga aslo qayishmaydi, cholni laqillatadi, paytdan foydalanib bir narsali bo‘lib qolishini o‘yaydi. Lekin u ellikboshidan farqli o‘laroq, asl qiyofasini yashirib o‘tirmaydi, cholni bemalol masxaralaydi, odob-axloq qoidalarini bir yoqqa yig‘ishtirib qo‘yib, beibo xatti-harakatlar qiladi. Keksa kambag‘al choldan uyalmasdan pora so‘raydi. Qobil bobo keksa avlod vakili. U dodhodan farqli o‘laroq, azob, qayg‘u-sitam, xo‘rlanishlar qurbaniga aylanadi. “O‘g‘ri” hikoyasidagi xalq hayotining ifodalanishini ko‘rib chiqdik. Bu hikoyalarning yozilish davri bir bo‘lib, bitta zamon va makon yoritiladi. Bu davrdan chiqib, keyingi o‘n yigirma yillik davr ichida yozilgan asarlaridagi xalqhayotidagi ma’naviy qashshoqlik oldingi asarlaridan ancha farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotimizning yirik vakili, o‘zbek professional prozasining oyoqqa turishida tinimsiz mehnat qilgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi necha o‘n yillardan buyon xalqimizning ongu shuurini band etib kelmoqda. Adibning badiiy mukammal hikoyalari, qaytarilmas xarakterlar talqini joy olgan qissa, roman va pesalari, aforizm darajasidagi tesha tegmagan fikrlari hali uzoq yillar ko‘p avlodlar uchun mulohaza obyekti bo‘lib qolishi shubhasizdir. Adibning mo’jaz hikoyalari bag’riga olam olam mazmun sig’dira bilishi, har bir so‘z jumla ustiga chuqur fikr yuklay olish mahoratiga tam beramiz. Uning asarlari hech qachon o‘z muxlislarini yo‘qotmadi.

## REFERENCES

1. Sharipova, M. (2023). O ‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA ALPOMISHSHUNOSLIK TA’LIMOTI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 44(44).
2. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TALIM YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARI VA UNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 44(44).
3. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O‘YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO‘LLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 44(44).
4. MA’NAVIY, Y. A. R. V., & O’RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU. *Maktabgacha ta’lim*.
5. SHARIPOVA, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONINI O’ZBEK VARIANTLARI ORASIDAGI MAROSIMLARNING BADIY TALQINI. *Journal of Research and Innovation*, 1(10), 45-52.

6. Baxshilloyevna, S. M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONIDA SUNNAT TO 'YI MAROSIMINING BADIY TALQINI. *Научный Фокус*, 1(2), 1091-1095.
7. Baxshilloyevna, S. M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONINI O 'RGANISH BOSQICHLARI, METODLARI HAMDA KUYLASH ETOSI. *Научный Фокус*, 1(2), 1096-1100.
8. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ETNIK MADANIY TA'LIM VA UNING TARIXIY ILDIZLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 35(35).
9. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IFODALI NUTQNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 32(32).
10. Sharipova, M., Ro'ziboyeva, Z., & Yovqocheva, H. (2024). FEATURES OF ACHIEVEMENT OF A CAREER IN PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(5), 1370-1376.
11. Baxshilloyevna, S. M. (2024). ARXAIK EPOSNING SUJET STRUKTURASIDA MOTIVLAR TAHLILI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(4), 343-349.
12. Шарипова, М. Б. (2024). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 77-82.
13. Bakhshilloevna, S. M., & Akmalovna, A. M. M. (2024, February). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"-Brno, Czech* (Vol. 1, pp. 49-51).
14. qizi Hamidova, U. F., & Sharipova, M. B. (2024, February). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 3, No. 1, pp. 73-82).
15. Шарипова, М. Б., & Нематуллоева, М. (2024, February). ТЕОРИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ ЭРИКА ЭРИКСОНА СРЕДИ ДРУГИХ ПОДХОДОВ И НАУЧНОЙ МЕТОДОЛОГИИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE" MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"-Brno, Czech* (Vol. 1, pp. 6-13).

16. Шарипова, М. Б., & Нематуллоева, М. (2024, February). КОМПЛЕКСНАЯ КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ И ЕЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE "MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*–Brno, Czech (Vol. 1, pp. 18-25).
17. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYЛИGI VA AN’ANAVIYЛИGI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 44(44).
18. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYЛИGI VA AN’ANAVIYЛИGI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 46(46).
19. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYЛИGI VA AN’ANAVIYЛИGI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 46(46).
20. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAИK-BAIIY XUSUSIYATLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 44(44).
21. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA ETNIK-MADANIY TA’LIM TIZIMI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 32(32).
22. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONI BADIY STRUKTURASIDA MAROSIMLARNING O’RNI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 30(30).
23. Sharipova, M. B., & Farmonova, G. S. Q. (2021). NIKONDAN SO’NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI (“ALPOMISH” DOSTONI MISOLIDA). *Scientific progress*, 2(7), 1125-1129.
24. qizi Hamidova, U. F., & Sharipova, M. B. (2024, February). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 3, No. 1, pp. 73-82).
25. Шарипова, М. Б., & Нематуллоева, М. (2024, February). ТЕОРИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ ЭРИКА ЭРИКСОНА СРЕДИ ДРУГИХ ПОДХОДОВ И НАУЧНОЙ МЕТОДОЛОГИИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE "MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*–Brno, Czech (Vol. 1, pp. 6-13).
26. Шарипова, М. Б., & Нематуллоева, М. (2024, February). КОМПЛЕКСНАЯ КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ И ЕЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL E-CONFERENCE "MODERN TENDENCIES OF DIGITAL EDUCATION AND WAYS OF IMPLEMENTING THEM IN THE EDUCATIONAL PROCESS"*–Brno, Czech (Vol. 1, pp. 18-25).

27. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 44(44).
28. Sharipova, M. (2024). EPOS HAMDA MAROSIM MUNOSABATINING QADIMIYLIGI VA AN’ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 46(46).
29. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAICK-BAIIY XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 44(44).
30. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA ETNIK-MADANIY TA’LIM TIZIMI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 32(32).